

MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI KURSINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLAR VA GEOGRAFIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Matsaidova Sayyora Xudayberganovna
Urganch davlat universiteti
P.f.n., dotsent**

**Matsaidova Sayyora Khudaiberganova
Urgan State University
Ph.D., Associate Professor**

**Матсаидова Сайёра Худайбергановна
Урганческий государственный университет
к.п.н., доцент**

**Rajabov Ho'sinboy Zokirjon o'g'li
Urganch davlat universiteti
Magistrant**

**Раджабов сын Хосинбоя Закирдона.
Ургенчский государственный университет
Магистрант**

**Rajabov is the son of Khosinboy Zakirjon.
Urgench State University
master's student**

Annotatsiya. Ushbu maqolada materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o'qitishda interfaol usullar va geografik o'yinlardan foydalanish usullari ko'rsatilgan. O'yinlar geografiya ta'limi jarayoni misolida ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. O'zbek modeli, interfaol, krik, vodiy, selva, epifit, syujetli - rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini

Аннотация. В данной статье показано, как использовать интерактивные методы и географические игры при преподавании курса естественной географии континентов и океанов. Игры были разработаны как пример процесса обучения географии.

Ключевые слова. Узбекская модель, интерактивно, ручей, долина, сельва, эпифит, сюжетно-ролевые игры, творческие игры, деловые игры

Abstract. This article shows how to use interactive methods and geography games when teaching a course in the natural geography of continents and oceans. The games were developed as an example of the geography learning process.

Key words. *Uzbek model, interactive, stream, valley, selva, epiphyte, role-playing games, creative games, business games*

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida Geografiya fanini o‘qitishni rivojlantirish Konsepsiysi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini” va 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiysi”da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Shu asosda bugungi kunda O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi Umumiyl o‘rta ta’limning O‘quv dasturida 7-sinf Geografiya kursining mazmuni quyidagicha ko’rsatilgan. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi okeanlar, materiklar haqida umumiyl tushuncha, geografik qobiqning mohiyati va chegaralari, materiklar va okeanlarning shakllanishi va rivojlanishi, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari, tabiat komplekslari va ularning zonalligi, okean tubi relyefi, okean suvining xususiyatlari, dengiz oqimlari, har bir materikning geografik o‘rni, tabiatini o‘rganish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi va iqlim mintaqalari, ichki suvlari, tabiat zonalari, tabiiy geografik o‘lkalari, tabiatiga insonning ta’siri, antropogen landshaftlari, ekologik muammolari, tabiatini muhofaza qilish, har bir okeanga kompleks tabiiy geografik tavsif kabi masalalarni qamrab olgan [1].

Zamonaviy ta’lim respublikamizda ko’p bosqichli tizimga o’tdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimi islohatlari dunyo bo’yicha “o’zbek modeli” deb e’tirof etilmoqda. So’nggi yillarda bu yo’nalishda bir qator g’arb davlatlari modellaridan unumli foydalanilmoqda. Ta’limda pedagogik shakllarning muhim hususiyati muloqot materiallari sifatida bilimlardan emas, balki axborotlardan foydalanishdir. Bilim va axborot o’rtasida farq shundaki, bilimlar – voqelikni bilishning jamiyat amaliyotidagi tekshiruvidan o’tgan natijasi bo’lib, asosiy xususiyati haqiqatga to’g’ri kelishi va ziddiyatlardan xoli bo’lishi

demakdir. Didaktikada ta’lim usullari degan ibora juda ko’p ishlataladi an’naviy metodika ta’lim usuli - bu o’qituvchining turli tushuncha, qonuniyat, atama, hodisa va jarayonlarni o’quvchida, aniqrog’i, uning ko’z o’ngida shakllantirish usuli deb hisoblaydi.

Maktab amaliyotida qator ta’lim usullari jumladan: o’qitish, yozish, axborotni o’zlashtirish, o’quv vositalari, darslik bilan ishlash kabi usullar keng qo’llanilmoqda. Ammo XX asr ohirida va XXI asr boshlarida ta’limning “interfaol” usullari degan ibora pedagogik adabiyotlarda keng ishlatalmoqda. Bu iboraning mohiyatini oshib berishga harakat qilib ko’ramiz. “inter” o’ta degan ma’noda ishlatalmoqda. Interfaol degani o’ta faol ta’lim usuli demakdir. Bu usullar guruhi tez muddatda samarali ta’sir etish o’quvchilarda mustaqil fikr qilishni, ulardagi ijodkorlik hamda mavzu mohiyatini qiziqib o’zlashtirishlarini ta’minlaydi. Maktab amaliyotida qo’llanilayotgan interfaol usullarni hamda ilg’or pedagogik tajribalarni o’rganish, bu sohada yetarli metodik adabiyotlarning kamligi, eng asosiysi, interfaol usullarga, pedagoglarning ehtiyoji oshib borayotganligini ko’rsatadi.

O’qitishning interfaol usullari, tushuntirish, ko’rsatmali va vositalardan foydalanish kabi an’naviy usullardan uning samradorligi yuqori bo’lib, u o’quvchilarni shaxs sifatida shakllanishi, xususiy qobiliyatlarini oshirish, ijodiy mustaqilligini ta’minalashda muhim omil hisoblanadi. O’qitish o’quvchi faoliyatini gavdalantiradigan sharoitda olib boriladi va muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratiladi. Ta’limda bilim, ko’nikma va malakalarni guruh bo’lib, jamoa faoliyatida birgalikda o’zlashtirish imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Bu jarayonlarda o’quvchilarning fikrlash faoliyatida jonlanish yuz berib, faollik oshadi. O’quv mashg’uloti o’yinlar, munozara, vaziyatga doir topshiriqlar va boshqa o’qitish, shakli va usullarda olib boriladi. Interfaol usullar haqida so’z borganda albatta, geografik ta’limiy o’yinlarga murojaat qilmasdan ilojimiz yo’q.

Talim jarayonida talimiyl o’yinlar texnologiyasi talimiyl o’yinli dars shaklida qo’llaniladi. Ushbu darslarda o’quvchilarning bilim olish jarayoni o’yin faoliyati bilan

uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning bilim olish faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar talimiy o'yinlar darsi deb ataladi. Shunday darslardan biri "Baxtli tasodif o'yini" misolda keltiramiz. O'yinchilar 4 - 6 kishi bo'lib, ular bilimdonlardir. Savollar qizil va ko'k konvertda bo'ladi. Guruh sardorlari savollarni boshlovchidan oladilar va birgalashib 30 lahma tayyorlanadilar. So'ngra o'yinchilardan biri savollarga javob beradi. Ishqibozlarning savollar javobini aytishga yo'l qo'yilmaydi.

I-tur. Har bir guruhga savollar beriladi. Savollarga 15 lahzadan so'ng javob beriladi. 30 lahzadan vaqt oshsa javoblar inobatga olinmaydi. Har bir to'g'ri javobga bir ball beriladi.

Birinchi guruhning savollari:

1. Afrikani kim birinchi aylanib o'tgan?
2. Avstraliyada quruq o'zanlar nima deyiladi?
3. Sahrodagi shamol nima?
4. And tog'laridan qanday foydali qazilma olinadi?
5. Afrika cho'llarini aytинг?

Javoblar: Vaska - da Gama, Krik, Samum, Mis, Sahroi Kabr, Kalaxari, Namib.

Ikkinchi guruhning savollari:

1. Qaysi materikda yer qimirlaydi?
2. Afrikada quruq o'zanlar nima deyiladi?
3. Kuchli shamolning nomi nima?
4. Afrikada qaysi mamlakat foydali qazilmalarga boy?
5. Janubiy Amerika tekisliklarini aytинг?

Javoblar: Antarktida, vodiy, tornada, JAR, Amazonka, Orinoko, La-Plata.

II-tur. Savollarga bir daqiqagacha o'ylab javob berish mumkin. Har bir to'g'ri javobga ikki ball boshlovchi, o'n besh lahzadan so'ng javobga tayyorgarlikni so'raydi.

Guruhga I - savol. I. Konvert ichida kofe doni bor bu ekin nomi, vatani, qayerlarda ekiladi, tayyorlash texnologiyasini aytib beradi.

Javob: Vatani Afrika, u hozir esa Janubiy Amerikada ko'p ekiladi, rasmini chizadi.

2-savol: Afrika ustidan samolyotda uchayapsiz ekvator ustida nima ko'rasiz qormi?, muzmi?

Javob: Klimanjara tog'i ekvatorga yaqin joylashgan uning cho'qqilarida doimiy qor va muzliklar bor.

3-savol: Bu o'simlik davlatning ramzlaridagi belgisi bu qaysi o'simlik.

Javob: Namibiya davlati belgisi velvichiya.

Ikkinci guruhga savol I. Konvertda kakao kukuni bor uni izohlang?

Javob: Vatani Janubiy Amerika u ikki yarim sharda ham ekiladi? O'simlikni rasmini chizib ko'rsatadi. Kakaoni ichishga tayyorlab ko'rsatiladi.

2 – savol: Siz Anxel sharsharasidasiz. Suvni tatib ko'ra olasizmi?

Javob: U juda baland sharshara. Unga juda yaqin borib bo'lmaydi. Uzoqdan ko'ramiz, suvini tatib ko'rib bo'lmaydi.

3 - savol Bu o'simlik Amazonka daryosi mo'jizasi uni nomi nima?

Javob: Viktoriya regiya .

Ishqibozlarning savollari.

I-guruhga.

1. Mulatlar kim? (Yevropalik bilan negrlarni nikohidan tug'ilganlar).

2. Atoll nima? (Marjon orollari).

3. Avstraliya gerbida qaysi hayvon tasvirlangan? (Kenguru).

2-guruhga.

1. Vikinglar qayerda yashagan? (Skandinaviyada).

2. Dunyoda qaysi daryo eng katta? Amazonka.

3. Liviya davlati qayerda ?. (Afrikada).

III-tur. Boshlovchi har bir guruhga savol beradi. Savollarga javobni hamma birga tayyorlaydi. Javob 15 lahzadan so'ng so'raladi. To'g'ri to'la javobga bir ball qo'yiladi.

- 1-guruhga. 1. “Ajal vodiysi qaerda joylashgan”? (Shimoliy Amerikada).
 2. Selva nima? (Janubiy Amerikadagi ekvatorial o'rmon).
 3. Papuaslar hayotini ular ichida yashab kim o'rgangan? (Makluxo-Maklay).
 4. Qaysi materik eng keyin ochilgan? (Antarktida).
 5. Sardorga savol. Epifit nima? (epifit o'simlik. U boshqa o'simlikda yashaydi. Lekin parazit emas).
-
- 2-guruhga. 1. “O'lik dengiz” qayerda joylashgan? (Arabiston yarim orolida).
 2. AQSh ning eng shimoliy shtati qaysi? (Alyaska).
 3. Avstraliya aborigenlarining ov quroli nima ? (Bumerang).
 4. Qaysi davlat butun materikni egallagan? (Avstraliya ittifoqi).
 5. Sardorga savol. Qaysi tuproq ferralit deyiladi? (tarkibida temir moddasi bo'lган nam, issiq iqlimda hosil bo'lган, tuproq qizil rangli bo'ladi).

IV-tur. I-II guruhlar berilgan rasmlarni izohlab beradi. Xaritadan davlatlarni, shakarqamish plantatsiyasi, sholi ekini, choy terish, sayyoohlarning rasmlari, sanoat korxonasi, shaharlar va boshqalarni.

Ishqibozlarning savollariga javob beriladi.

V-tur. 1 daqiqada savollarga javob beradilar. Javob qisqa, bir so'z bilan javob beriladi. O'ylash uchun 15-30 lahma.

- 1-guruhga. 1. Grenlandiya so'zining manosi? (yashil mamlakat yer).
 2. Janubiy Amerikadagi eng katta mamlakat? (Braziliya).
 3. Gavayi orollari qaysi mamlakatga qaraydi? (AQShga).
 4. Shimoliy va Janubiy Amerikani qaysi kanal ajratib turadi? (Panama).
 5. Afrika qirg'og'idagi eng katta orol? (Madagaskar).
-
- 2-guruhga. 1.Grenlandiya qaysi mamlakatga qaraydi? (Daniya).
 2. Geveyadan nima olinadi? (kauchuk).
 3. Magellan dunyo sayohatidan qaytib kelganmi? (yo'q).

4. Kenguru so'zining manosi . (biz tushunmayapmiz).

5. Afrika va Yevropani qaysi bo'g'oz ajratib turadi ?. (Gibraltar) [5].

Bu o'yinda uzoq vaqt tayyorlaniladi. U o'qituvchi va o'quvchilardan ko'p mehnat va izlanish talab qiladi. Uni takrorlash, amaliy ish darslarida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talimiy o'yinlar darslarining bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli - rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlariga ajratish mumkin.

O'qituvchi avval o'quvchilarni individual, so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlash va uni o'tkazish, ular muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng, ommaviy o'yinlarga tayyorlash lozim. Chunki o'quvchilar ta'limiy o'yinlari darslarida faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, sinf jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim. Bugungi kunda interfaol usuller va ta'limiy o'yinlarning har bir fanga oid usullarini yaratiash zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi Umumiy o'rta ta'limning O'quv dasturi. Geografiya 2022-2023 yu uchun.

2. Голиш Л.В., Файзуллаев Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш-Т.: -Иқтисодиёт”-2011

3. Р.Ишмуҳамедов, М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологияси. Т. : Nihol.- 2013.

4.Ш.Авазов, С.Матсаидова. География таълими технологиялари. Урганч-2012.

5. M. T. Mirakmalov, Sh. M. Sharipov M. M. Avezov. M. T. Hojiyeva. Geografiya. 7-sinf. Toshkent 2022 y.